

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi



2018 yil yanvar-iyul oylarida Toshkent viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (dastlabki ma'lumot)


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi 18,3 trln.so'mni, o'sish 9,0 %ni tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati -107,9%
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - 20,5 %
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – 19,0 %

Dastlabki ma'lumotlar bo'ycha 2018 yilning yanvar-iyul oylarida Toshkent viloyati korxonalaridan tomonidan 18,3 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,0 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 10 % ga , tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 1,1% ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 12,3 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 32,8 % ga o'sishi hisoblanadi.

2018 yil yanvar-iyul oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2404,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,1 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14005,5 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 76,4 % ni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1842,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,1% ni) tashkil etdi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 69,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ni) tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 3762,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 7,9 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 20,5 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2017 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 44,9 % dan 2018 yilning yanvar-iyul oylarida 45,3% ga kamayishi kuzatilmoqda.


Yanvar - iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da




Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Olmaliq shahar (viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmning 30,2 % ulushini), Bekobod shahar (18,8 %), Chirchiq shahar (8,8 %) Zangiota (7,9 %%%), Qibray (5,7%) tumani, Angren (5,6 %) shahar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2018 yilning yanvar- iyul oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Shu bilan birga eng kam ulush Ohongaron, Piskent, Quyi-chirchiq (0,4 %), Bo'ka, Bekobod (0,5 %), Parkent (0,7 %) va Oqqo'rg'on (0,7 %) tumanlariga to'g'ri keladi.



Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Angren shahrida (2017 yilning yanvar- iyul oylariga nisbatan 122,3% ga), Bekobod (131,1 % ga), Chirchiq shaharlarida (126,1 % ga) Zangiota tumanida (109,4 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining o'sishi ta'minlandi.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,6 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 19,0 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yuqorichirchiq (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 76,6 %), Parkent (75,6 %), Piskent (69,0 %), Bekobod (63,6 %), Bo'ka (61,4%) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Bekobod (1,6%), Olmaliq (3,1 %), Angren (15,4 %), Ohongaron (25,5 %) shahrida kuzatildi.

2018 yilning yanvar- iyul oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da

